



KECHIKTIRILGAN TO'LOVLAR UCHUN QAYTA MOLİYALASHTIRISH STAVKASINING QO'SHIB TO'LANISHIDA IS'TELOMCHI HUQUQLARI.

Qaxxorova Mahfuza Erkin qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti. O'zbekiston, Toshkent

Ma'lumki, bundan bir necha yil oldin Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasining oshirishi aholi orasida qo'rquv uyg'otib, keng muhokamada bo'ldi. Ko'pchilik uning oqibatlari katta moliyaviy inqirozlarni hamda yashash sharoiti qiyinlashishiga olib keladi deb xavotirga tushgan edi. To'g'ri, ushbu xavotirlarni asossiz deb inkor etib bo'lmaydi, biroq Markaziy Bankning qayta moliyalashtirish stavkasining 9 foizdan 14 foizga yoki 14 foizdan 17 foizga chiqarishi biz o'ylagandek tez va qaytarib bo'lmas salbiy oqibatlarga olib kelmasligini tushunib yetishimiz kerak [1]. Agar aholi iqtisodiy va moliyaviy hoolatni o'rganib, to'g'ri tahlil qilib, hukumatga moliyaviy siyosat olib borishida yaqindan yordan bersa, albatta, turmush kechirishimiz osonlashishiga olib keladi. Qisqaa qilib aytadigan bo'lsak, aholi oz huquqlarni talab qilishi uchun moliyaviy savodxonlikka ega bo'lishi lozim. Bu nafaqat haq- huquqlarini talab qilib olishi uchun balki mamlakat iqtisodiy hamda siyosiy vaziyatining yaxshilanishiga ham olib keladi.

Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasi o'zi nima va qanday ta'sir qiladi umuman olganda bizga uning natijasi qanday seziladi kabi savollarga birin ketin javob olish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi bu Markaziy bankning Respublikadagi boshqa banklarga taqdim qiladigan puliga qo'yilgan to'lov foizidir. Masalan, Markaziy bank tijorat banklarga kredit beradi, banklar o'z navbatida ushbu kreditni jismoniy va yuridik shaxslarga kredit yoki qarz qilib qayta tarqatadi. Bunda Markaziy bankdan ma'lum bir foizga olingan kreditni ustiga o'z foizini qo'shib tijorat banki aholiga kredit tarqatadi. Shu orqali tijorat banklari foyda oladi. Bunda Markaziy Bankning aholi bilan to'g'ridan-to'g'ri faoliyat olib bormasligining bir qancha sabablari mavjud bo'lib, ulardan:

birinchidan, Markaziy Bank tijorat bilan shug'ullanmasligi;

ikkinchidan, markaziy bankning respublika bo'ylab millionlab bank filiallari ochib faoliyat olib bora olmasligi;

uchunchidan, bozor iqtisodiyot sharoitida iqtisodiyotga davlaaat aralashuvini kamaytirish maqsadi va boshqalar.

Markaziy Bankning qayta moliyalashtirish stavkasining oshirishi tufayli, tijorat banklari ham daromad olish maqsadida jismoniy va yuridik shaxslarga kredit va omonat foizlariga ta'sir qiladi [2]. Moliyaviy operatsiyalarning bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lishi har bir zanjirga ta'sir qilib, umumimiy oqibatda bozorda narxlar darajasining keskin ortishiga olib keladi. Tovar va xizmatlar, oylik maoshlari, valyuta ayriboshlash kurslari misol bo'la oladi. Qolaversa, qayta moliyalashtirish foizi kechiktirilgan to'lovlarga ham ta'sir qilib, uning foiziga qo'shiladi. O'zbekiston sharoitida kechiktirilgan to'lovlar deb kommunal xizmatlar uchun to'lovlar, soliqlar, jarimalar, kreditlar va boshqalar kiradi. Bundan kelib chiqilsa, majburiy yig'implarning har qanday turi kechiktirilgan bo'lsa,



jarimaga to'lovni Markaziy Bank qayta moliyalashirish stavkasini oshirgandan so'ng kechiktirilgan summalariga ham ushbu foizlar qo'shib to'lanishi talab qilinadi [3]. Muammoli jihati shundaki, agar omonatchi asosiy summaga olinadigan foizni shartnoma bo'yicha asosiy foiz stavkasini oshirishilishini hisobga olgan bolsa, har oy uchun to'lanadigan foiz oshirilgan tartibda yoki aksincha kamaytirilgan tartibda hisoblanadi. O'zbekiston sharoitida hozir faqat inflyatsiyani sun'iy ravishda ushlab turish maqsadidagina asosiy foiz stavkani 0.5 ko'pi bilan 1 foizga tushirilishi mumkin qolgan aksariyat hollarda stavka tushadi. Shuni hisobga olgan holda, omonatchi shartnomaga ushbu maslalani kiritilishini talab qilsa haq huhuqlari poymol bo'lmasligi kafolatlanadi. Aholiga shu kabi huhquqiy maslalani o'rgatish uchun uzluksiz ravishda ommaviy axborot vositalarida xabarlar berilishi kerak deb o'ylayman.

Demak, hukumat bu bo'yicha barcha molyaviy operatsiyalar narxlarini o'zgartiradi. Lekin tadbirkorlik va o'zini ozi band qilish sohasida kechiktirilgan to'lovlarni oshirilgan asosiy foiz stavkasida to'lanishini ham yo'lga qo'yadimi degan savol yuzaga keladi. Ya'ni, agar xususiy tadbirkor qo'lida ishlayotgan ushchi oylik maoshini 2 oy kechiktirib olsa, bunda tadbirkor unga qo'shimcha qo'shilgan narxlar asosida haq to'lashi kerak bo'ladi. Lekin mamlakatimizda bunday tartib tamoyil hali o'rganilmagan. Chet el mamlakatlaridan misol qiladigan bo'lsaak Qozog'istonda asosiy foiz stavkasi 9 foizdan 14 foizga oshgan taqdirda, kechiktirilgan oylik maoshlarni 6 foizga oshirilgan tartibda to'lab berilishi kerak[4]. Evropa Ittifoqi iste'molchilarni moliyaviy mahsulotlar va xizmatlardan foydalanganda, masalan, bank hisobini ochishda, pul o'tkazishda, investitsiya qilishda, ipoteka krediti yoki iste'mol kreditini olishda yoki pensiya rejasini tuzishda himoya qilish uchun bir qator asosiy huquqlarni belgilab qo'ydi.

Evropa Ittifoqi iste'molchilari yashash joyidan qat'i nazar, har qanday Evropa Ittifoqi davlatida asosiy to'lov hisobiga ariza berish huquqiga ega. Hisobvaraqlar ochishdan oldin banklar "To'lov to'g'risida ma'lumot hujjati"ni taqdim etishlari kerak:

hisobda taqdim etilgan eng muhim xizmatlar har qanday tegishli to'lovlar

Yiliga kamida bir marta banklar, shuningdek, quyidagi tushuntirishlar bo'yicha "yig'im to'g'risidagi deklaratsiya"ni bepul taqdim etishlari kerak:

hisob bo'yicha qilingan xarajatlar amaldagi foiz stavkalari haqida ma'lumot[5].

Xulosa. To'lov stavkalarining oshishi ipoteka, avtomobil kreditlari va kredit kartalari uchun kredit xarajatlarini oshirib yubordi, bu uy xo'jaliklari byudjetiga og'irlik qildi yoki fond bozorida qimmatli qog'ozlarni sotib olishni kechiktirishga majbur qildi[6]. Foiz stavkasining oshirilishi bilan barcha narxlar oshgani singari iqtisodiyotda real sektorlarida ham kechiktirilgan to'lovlarni manashu tartibda to'lanilishini hukumat nazorat qilishi kerak. Shunda adolatli ijtimoiy-iqtisodiy teng jamiyat qura olamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Yangi O'zbekiston" gazetasi 2020 yil 15 sentyabrdagi nashri
2. www.cbu.uz- O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki rasmiy sayti
3. www.norma.uz



4. www.bankxizmat.uz
5. www.consilium-uz.net Yevropa Ittifoqi milliy kengashi rasmiy sayti
6. "High interest rates hammer consumers seeking mortgage or car loans". Max Zahn. March 25, 2023